



SIRDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Sirdaryo viloyatida kichik tadbirkorlik

2024- yil yanvar-iyun

Dastlabki ma'lumotlar



Sirdaryo viloyatida kichik tadbirkorlik

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar


2024- yilning 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni **9 912** tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **1 311** taga yoki **11,7 %** ga kamaygan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har **1000** aholiga **15,2** birlikni tashkil qildi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar


2024- yilning yanvar-iyun oylarida **1 039** ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan **14,1 %** kamaygan.

Yuridik shaxs – o'z mulkida, xo'jalik yuritishida yoki operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda davogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

2020-2024- yillar yanvar-iyun oylarida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz), birlikda



2024- yilning 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng yuqori ulushga ega bo'lgan sohalar bo'yicha soni va ulushi



Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar


Hududlar bo'yicha 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda

2023- y.		2024- y.
768	Oqoltin	709
960	Boyovut	895
926	Sayxunobod	744
897	Guliston	785
867	Sardoba	859
1 024	Mirzaobod	879
1 354	Sirdaryo	1 240
650	Xovos	603
2 657	Guliston sh.	2 204
290	Shirin sh.	236
830	Yangiyer sh.	758

2024- yil 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni jami **9 912** tani, shundan, yangi tashkil etilganlari **1 039** tani tashkil etdi.

2024- yilning 1- iyul holatiga ko'ra hududlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning eng ko'pi Guliston shahrida **2 204** tani yoki jamiga nisbatan **22,2 %** ni tashkil etdi.

1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda





Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda)*

Guliston sh.	22,1
Shirin sh.	12,3
Yangiyer sh.	15,9
Oqoltin	18,6
Boyovut	10,7
Sayxunobod	14,1
Guliston	16,1
Sardoba	19,6
Mirzaobod	15,0
Sirdaryo	13,3
Xovos	13,1

Sirdaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati 1- iyul holatiga, birlikda



2024- yil 1- iyul holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni har **1000** aholiga nisbatan **15,2** birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich 2019- yilga nisbatan **1,7** birlikka kamaygan.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har **1000** aholiga nisbati eng yuqori ko'rsatkich Guliston shahrida **22,1** birlik, Sardoba tumanida **19,6** birlik, Oqoltin tumanida **18,6** birlik, Guliston tumanida **16,1** birlik va Yangiyer shaharda **15,9** birlikka yetdi.

* Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarini qo'shgan holda)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining har ming aholiga nisbati

Sirdaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati, birlikda

Eng yuqori ko'rsatkich

Guliston shahri
– 22,1 birlik.

O'rta ko'rsatkich

Mirzaobod tumani
– 15,0 birlik.

Eng past ko'rsatkich

Boyovut tumani
– 10,7 birlik.

Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining har 1000 aholiga nisbati tuman va shaharlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko'rsatkich Guliston shahrida 22,1 birlik, Sardoba tumanida 19,6 birlik, Oqoltin tumanida 18,6 birlik, Guliston tumanida 16,1 birlik, Yangiyer shahrida 15,9 birlik Mirzaobod tumanida 15,0 birlik, Sayxunobod tumanida 14,1 birlik, Sirdaryo tumanida 13,3 birlik va Shirin shahrida 12,3 birlik kuzatildi.

Tadbirkorlik faoliyati (kichik tadbirkorlik) – tadbirkorlik subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

2024- yil 1- iyul holatiga har 1000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p tashkil etgan shahar va tumanlar, birlikda

Guliston shahri

22,1

Oqoltin tumani

18,6

Yangiyer shahri

15,9

Sardoba tumani

19,6

Guliston tumani

16,1

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

Yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda

2023- y.

2024- y.

255	Guliston sh.	212
135	Oqoltin	127
89	Mirzaobod	112
184	Sardoba	97
88	Guliston	94
140	Sirdaryo	93
71	Boyovut	90
106	Sayxunobod	68
69	Xovos	68
58	Yangiyer sh.	64
15	Shirin sh.	14

2024- yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha ulushi, % da

Guliston sh.	20,4
Oqoltin	12,2
Mizaobod	10,8
Sardoba	9,3
Guliston	9,0
Sirdaryo	9,0
Boyovut	8,7
Xovos	6,5
Sayxunobod	6,5
Yangiyer sh.	6,2
Shirin sh.	1,3


2024- yilning yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Guliston shahri – **20,4** %, Oqoltin – **12,2** %, Mirzaobod – **10,8** %, Sardoba – **9,3** % va Guliston tumanlari– **9,0** % ga to'g'ri keldi.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2023-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar, birlikda



Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega bo'lgan shahar va tumanlar, birlikda




2024- yilning yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida 369 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 211 ta hamda sanoatda 169 ta yangidan tashkil etilgan.

Viloyatning tumanlari va shaharlari kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p kichik korxona va mikrofirma Guliston shahrida 212 ta, Oqoltin tumanida 127 ta hamda Mirzaobod tumanida 112 ta yangidan tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida 2020-2024- yillarning yanvar-iyun oylari davomida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar ulishi % da



So'nggi yillarda Sirdaryo viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlarini qo'llab - quvvatlash hamda ishbilarmonlik muhitini sifat jihatdan yaxshilash bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlari, shuningdek, bu sohaga berayotgan katta e'tiborlari natijasida 2019-2024- yillarning yanvar-iyun oylari davomida jami **6 868** ta kichik korxona va mikrofirma yangidan tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar sohalar kesimida tahlil qilinganda, eng ko'p yangi subyektlar savdo sohasida – **2 606** (yoki **37,9** %) ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **1 371** (yoki **20,0** %) ta, sanoat sohasida – **1 244** (yoki **18,1** %) ta, Xizmatlar sohasida – **1 178** (yoki **17,2** %) ta va Qurilishda – **469** (yoki **6,8** %) tani tashkil etgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari, % da




Sanoat



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi



Investitsiya



Qurilish



Chakana savdo




Xizmatlar



Yuk tashish



Yuk aylanmasi




Yo'lovchi tashish



Yo'lovchi aylanmasi




Eksport



Import


■ 2023- y. ■ 2024- y.




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHM dagi ulushi dinamikasi (yanvar-iyun oylarida), % da

2024- yilning yanvar-iyun oylarida YaHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **60,7** % ni tashkil qilib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan **0,6** punktga kamaygan.




2024- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushga ega bo'lgan tarmoqlari, % da




2024- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlikning eng yuqori ulushlari qishloq xo'jaligida **97,6** % ni, yo'lovchi aylanmasida **97,2** % ni, yo'lovchi tashishda **95,1** % ni, chakana savdoda **94,2** % ni, yuk tashish **92,5** % ni va yuk aylanmasida **85,8** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-iyun oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarida sanoat faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarida qurilish faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarida investitsiya faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari (yanvar-iyun oylarida)


Kichik tadbirkorlik subyektlarida qishloq xo'jaligi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatishdagi faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati


2024- yilning yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm



2024- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 3 174,4 milliard so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Sirdaryo (795,8 mlrd. so'm), Boyovut (564,8 mlrd. so'm), Yangiyer shahri (423,9 mlrd. so'm), Guliston shahri (383,9 mlrd. so'm) va Sayxunobod tumanlarida (222,4 mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keldi. Shirin shahrida (19,2 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.


Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmida eng yuqori ulushga ega hududlar, % da




Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi dinamikasi, mlrd. so'm

2024- yil yanvar-iyun oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **34,3 %** ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushini Xovos (**95,6 %**), Mirzaobod (**87,3 %**), Oqoltin (**81,8 %**), Yangiyer shahri (**81,0 %**), Boyovut (**71,4 %**), Sardoba (**67,8 %**), Guliston shahri (**58,1 %**) va Sayxunobod (**57,3 %**) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilishdagi hajmi va ulushi dinamikasi



2024- yilning yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida bajarilgan qurilish ishlari hajmi va ulushi

Guliston sh.	489,1	98,0
Shirin sh.	29,2	28,7
Yangiyer sh.	149,5	100,0
Oqoltin	43,8	84,7
Boyovut	44,2	93,1
Sayxunobod	39,9	93,7
Guliston	72,0	95,4
Sardoba	90,4	63,0
Mirzaobod	202,3	69,2
Sirdaryo	226,9	91,9
Xovos	51,8	89,6

hajmi, mlrd. so'mda


ulushi, % da

2024- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi **1 439,1** milliard so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining **84,3** % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2023- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan o'sish sur'ati **109,4** % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Guliston shahrida (**489,1** mlrd. so'm), Sirdaryo (**226,9** mlrd. so'm), Mirzaobod (**202,3** mlrd. so'm), Yangiyer shaharda (**149,5** mlrd. so'm), Sardoba (**90,4** mlrd. so'm), Guliston (**72,0** mlrd. so'm) hamda Xovos tumanlarida (**51,8** mlrd. so'm) qayd etildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya faoliyati


2019-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda




2024- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi **3 705,3** milliard so'mni yoki jami investitsiya hajmining **65,4 %** ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2023- yilning mos davriga nisbatan **59,7 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalari hajmi Shirin shahar (**1 185,0** mlrd. so'm), Boyovut tumani (**824,9** mlrd. so'm), Yangiyer shahri (**378,2** mlrd. so'm), Guliston shahri (**359,1** mlrd. so'm), Sirdaryo tumani (**357,5** mlrd. so'm), Sardoba tumani (**170,9** mlrd. so'm), hamda Sayxunobod tumanlarida (**121,3** mlrd. so'm) qayd etildi.

2019-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiyadagi ulushi dinamikasi, % da




2024- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining investitsiya hajmi mlrd. so'm, ulushi % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligi faoliyati

2024- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi **5 524,0** mlrd. so'mni yoki jami qishloq xo'jaligi mahsuloti hajmining **97,7 %** ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2023- yilning tegishli davriga nisbatan **103,8 %** ni tashkil qildi.

2019-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari qishloq xo'jaligi hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd. so'mda




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi Boyovut (**957,3** mlrd. so'm), Sayxunobod (**765,0** mlrd. so'm), Sirdaryo (**661,9** mlrd. so'm), Guliston (**647,7** mlrd. so'm), Sardoba (**604,3** mlrd. so'm) hamda Oqoltin (**570,3** mlrd. so'm) tumanlarida qayd etildi.

2024- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi va ulushi

Sayxunobod	765,0	99,9
Boyovut	957,3	100,0
Sirdaryo	661,9	98,9
Oqoltin	570,3	92,3
Xovos	559,8	99,7
Guliston	647,7	99,7
Sardoba	604,3	91,9
Mirzaobod	574,5	97,1
Guliston sh.	151,0	99,9
Yangiyer sh.	21,1	100,0
Shirin sh.	11,2	100,0


hajmi, mlrd. so'mda 
ulushi, % da 

2019-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining qishloq xo'jaligidagi ulushi dinamikasi, % da



Kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmi va ulushi dinamikasi




2024- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi **2 327,3** mlrd. so'mni yoki umumiy chakana savdo tovar aylanmasining **94,2 %** ni tashkil etib, o'sish sur'ati 2023- yilning tegishli davriga nisbatan **109,2 %** ni tashkil qildi.

2024- yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi va ulushi

Guliston sh.	792,2	88,0
Sirdaryo	452,1	98,2
Yangiyer sh.	209,2	94,3
Mirzaobod	180,7	98,2
Boyovut	153,4	98,2
Guliston	141,7	98,7
Sardoba	92,8	97,8
Oqoltin	104,2	98,8
Sayxunobod	89,3	98,1
Xovos	79,5	99,3
Shirin sh.	32,3	100,0

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Guliston shahri (**792,2** mlrd. so'm), Sirdaryo (**452,1** mlrd. so'm), Yangiyer shahri (**209,2** mlrd. so'm), Mirzaobod (**180,7** mlrd. so'm), Boyovut (**153,4** mlrd. so'm), va Guliston tumanlari (**141,7** mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keldi.

2019 va 2024- yillarning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdodagi hajmining o'zgarishi, mlrd. so'm




hajmi, mlrd. so'mda


ulushi, % da

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining ko'rsatilgan xizmatlar hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2024- yilning yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarida xizmat ko'rsatish hajmi, mlrd. so'mda



2024- yil yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan **1 714,6** mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining **51,7 %** ni tashkil qildi va o'sish sur'ati 2023- yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **114,5 %** ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p xizmatlar hajmi Guliston shahri (**460,2** mlrd. so'm), Sirdaryo (**347,9** mlrd. so'm), Yangiyer shahri (**188,3** mlrd. so'm), Mirzaobod (**114,8** mlrd. so'm), Xovos (**113,3** mlrd. so'm), Boyovut (**111,2** mlrd. so'm) va Guliston tumanlari (**100,5** mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmat ko'rsatish faoliyati

Kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar sohasidagi turlari 2024- yilning (yanvar-iyun oylarida)

765,3	Savdo xizmatlari	95,9
92,4	Yashash va ovqatlanish xizmatlari	93,4
408,1	Transport xizmatlar	99,4
56,5	Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	68,1
68,5	Boshqa xizmatlar	30,8
75,6	Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	92,0
20,0	Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	65,6
38,4	Ijara xizmatlari	71,7
13,9	Moliyaviy xizmatlar	1,3
22,5	Ta'lim sohasidagi xizmatlar	17,8
9,6	Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	4,8
75,2	Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	98,7
68,6	Boshqa shaxsiy xizmatlar	100,0



Hajmi, mlrd. so'mda

Ulushi, foizda


Yuqoridagi diagramma ma'lumotlariga ko'ra, xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori ulushi savdo xizmatlarida – **95,9 % (765,3 mlrd. so'm)**, transport xizmatlarida – **99,4 % (408,1 mlrd. so'm)**, yashash va ovqatlanish xizmatlar – **93,4 % (92,4 mlrd. so'm)** hamda ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar **92,0 % (75,6 mlrd. so'm)**ni tashkil etdi. Kichik biznes subyektlarining xizmatlar sohasida eng kichik ulushi aloqa va axborotlashtirish xizmatlar **4,8 % (9,6 mlrd. so'm)** kuzatildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati (yanvar-iyun oylarida)

Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati



Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmidagi ulushi dinamikasi, % da



2019- y. 2020- y. 2021- y. 2022- y. 2023- y. 2024- y.

2024- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining hajmi va ulushi

Yangiyer sh.	26 016,2	95,9
Sirdaryo	11 804,0	36,3
Sayxunobod	8 127,2	58,8
Boyovut	17 071,8	76,7
Xovos	4 760,6	98,6
Mirzaobod	2 699,8	60,0
Oqoltin	3 757,9	100,0
Sardoba	2 213,6	89,8
Guliston sh.	3 541,8	27,2
Shirin sh.	505,9	100,0
Guliston	245,5	5,9

hajmi, ming. AQSH dollar


ulushi, % da

2024- yilning yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi **78,0** million AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining **61,3** % ni tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Shirin shahrida – **100,0** %, Oqoltin tumanida – **100,0** %, Yangiyer shahrida – **95,9** %, Sardoba tumanida – **89,8** %, Xovos tumanida – **98,6** %, Sayxunobod tumanida – **58,8** %, Boyovut tumanida – **76,7** % va Sirdaryo tumanida – **36,3** % ni tashkil qildi. Eng past ko'rsatkich Guliston tumanida – **5,9** % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2019-2024- yillarning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importi hajmidagi ulushi dinamikasi, % da




2024- yilning yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi **144,6** million AQSH dollarini yoki jami importning **80,5** % ni tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-iyun oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importdagi ulushi, % da

2024- yilning yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Yangiyer shahrida – **100** %, Oqoltin tumanida – **100** %, Guliston tumanida – **99,9** %, Xovos tumanida – **96,2** %, Sayxunobod tumanida – **92,5** %, hamda Boyovut tumanida – **89,5** % ni tashkil etdi.

Yangiyer sh.	100,0
Oqoltin	100,0
Guliston	99,9
Xovos	96,2
Sayxunobod	92,5
Boyovut	89,5
Sardoba	76,6
Mirzaobod	76,6
Guliston sh.	75,8
Sirdaryo	69,8
Shirin sh.	20,2


Kichik tadbirkorlik subyektlarining transport faoliyati



92,5 %

**Yuk
tashishda**


2024- yilning yanvar-iyun oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **92,5 %** ni tashkil etdi. 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **99,5 %** ni tashkil qildi.



85,8 %

**Yuk
aylanmasida**


2024- yilning yanvar-iyun oylarida avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **85,8 %** ni tashkil etgan bo'lib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **100,9 %** ni tashkil qildi.



95,1 %

**Yo'lovchi
tashishda**

2024- yilning yanvar-iyun oylarida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **95,1 %** ni tashkil etib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **99,8 %** ni tashkil qildi.




97,2 %

**Yo'lovchi
aylanmasida**

2024- yilning yanvar-iyun oylarida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlikning ulushi **97,2 %** ni tashkil etib, 2023- yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati **99,6 %** ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yil II chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




2024- yil II chorak yakunlariga ko'ra, kichik korxona va mikrofirmalar o'rtasida tanlanma kuzatuvlar o'tkazildi.

Ushbu so'rovnomada **571** ta kichik korxona va mikrofirmalar ishtirok etdi. Ularning **220 (38,5 %)** tasi iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholadi. **310 (54,3 %)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholadi. Qolgan **41 (7,2 %)** ta subyektlar iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning taqsimlanishi (ulushi) savdoda – **44,5 % (254 ta)**, xizmatlar sohasida – **20,3 % (116 ta)**, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **14,7 % (84 ta)**, sanoatda – **13,2 % (77 ta)**, qurilishda – **7,0 % (40 ta)** ni tashkil etdi.

2024- yil II chorak bo'yicha tanlanma kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, % da



Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yil II chorak bo'yicha kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi

152	Guliston sh.	26,6
15	Shirin sh.	2,6
50	Yangiyer sh.	8,8
42	Oqoltin	7,4
40	Boyovut	7,0
44	Sayxunobod	7,7
40	Guliston	7,0
50	Sardoba	8,0
33	Mirzaobod	5,8
73	Sirdaryo	12,8
32	Xovos	5,6


Soni, birlikda

Ulushi, foizda

Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining eng ko'p kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalar Guliston shahri (152 ta), Sirdaryo (73 ta), Yangiyer shahri (50 ta) va Sardoba (50 ta), tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillarning II choragi uchun umumiy iqtisodiy holatini baholanishi dinamikasi (joriy davrga nisbatan), birlik




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalarning soni 2019- yilning II choragida **228** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning II choragiga kelib esa **220** ta yoki 2019- yilning II choragiga nisbatan **8** taga kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning soni 2019- yilda **180** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning yanvar-iyun oylarida **310** ta yoki **130** taga oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2019- yilda **52** tani tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilga kelib **41** tani tashkil etgan va bu ko'rsatkich 2019- yilga nisbatan **11** taga kamaygan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillarning II choragida umumiy iqtisodiy holatini baholaganlar soni (o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan), birlik




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalarning soni 2019- yilning II choragida **244** tani tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning II choragiga kelib esa **216** ta yoki 2019- yilga nisbatan **28** taga kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalarning soni 2019- yilning II choragida **118** ta bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning II choragida **345** taga yetgan yoki **227** taga oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarning soni esa 2019- yilning II choragida **23** tani tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilning II choragiga kelib, bu ko'rsatkich **10** tani tashkil etib, **13** taga kamaygan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillarning II choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha), % da




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2019- yilning II choragida **49,6** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilga kelib esa **38,5** % ga yoki 2019- yilga nisbatan **11,1** birlikka kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2019- yilda **39,1** % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning II choragida **54,3** % yoki **15,2** birlikka oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2019- yilda **11,3** % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilga kelib, bu ko'rsatkich **7,2** % ga yetgan yoki **4,1** birlikka kamaygan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining 2019-2024- yillar II choragida umumiy iqtisodiy holatining baholanish dinamikasi (o'tgan yillarning mos davriga nisbatan), % da




Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkaziladigan tanlanma kuzatuvi ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini o'tgan yillarning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholagan korxonalar ulushi 2019- yilning II choragida **63,4** % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilga kelib esa **37,8** % ga yoki 2019- yilning II choragiga nisbatan **25,6** birlik kamaygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarishsiz deb baholagan korxonalarning ulushi 2019- yilning II- choragida **30,6** % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024- yilning yanvar-iyunida **60,4** % yoki **29,8** birlikka oshgan.

O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashgan deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2019- yilning II choragida **6,0** % ni tashkil etgan bo'lsa, 2024- yilning II choragiga kelib, bu ko'rsatkich **1,8** % yoki **4,2** birlikka kamaygan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatini baholash, % da




Kichik korxona va mikrofirmalarning 2024- yilning II choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda – **51,8** % ni, xizmatlar sohasida – **20,5** % ni, qurilishda – **10,5** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi savdoda – **40,3** % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **19,7** % ni, xizmatlar sohasida – **19,4** % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi savdoda – **36,6** % ni, xizmatlar sohasida – **26,8** % ni, sanoatda – **19,5** % ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatini baholash, % da



2024- yilning II choragida kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi savdoda – **49,1** % ni, xizmatlar sohasida – **20,4** % ni va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **13,9** % ni tashkil etdi.

Shuningdek, yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi savdoda – **41,7** % ni, xizmatlar sohasida – **19,7** % ni va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – **15,7** % ni tashkil etdi.

Yaqin 3 oydagi o'zgarishlar istiqboli bo'yicha iqtisodiy vaziyatni qoniqarsiz deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi savdoda – **40,0** % ni, xizmatlar sohasida – **40,0** % ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning II choragida biznesga ishonch muhitini baholash, % da


	O'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	Kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	43,2	49,6	7,2
Band bo'lganlar soni	13,8	82,0	4,2
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	40,0	55,0	5,0
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	22,2	72,3	5,5
Raqobat muhiti	45,4	50,2	4,4

	Yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli		
	Ko'payish (yaxshilanish*)	o'zgarishsiz	kamayish (yomonlashish*)
Korxonaning umumiy aylanmasi	34,5	62,3	3,2
Band bo'lganlar soni	16,3	81,6	2,1
Sotilgan mahsulot (tovarlar, ishlar va xizmatlar) uchun narx	29,4	68,0	2,6
Moliyaviy mablag'lar: o'z, kredit va qarz mablag'lari	24,9	72,3	2,8
Raqobat muhiti	33,5	64,6	1,9


* Faqat raqobat muhitiga tegishli

Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari

2024- yilning II choragida biznesga ishonch muhitini baholash, o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar, % da



2024- yilning II- choragida biznesga ishonch muhitini baholash, yaqin 3 oyda o'zgarishlar istiqboli, % da



* Faqat raqobat muhitiga tegishli